



SANOAT YETAKCHILARI QANDAY FIKRDA?

4

SAYLASH VA SAYLANISH HUQUQI

6

IJRO INTIZOMI HAQIDA

7

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 27-iyun № 5 (1527)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



“O'ZMETKOMBINAT” AJ va “DANIELI & C.Officine Meccaniche” o'rtasida o'zaro tushunish memorandumini imzolandi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Italiyada bo'ldi. O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi do'stona munosabatlar telekommunikatsiya, fan, turizm, madaniyat, sog'liqni saqlash va iqtisodiyot kabi turli sohalarda ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Bugungi kunga qadar ikki mamlakat o'rtasida qishloq xo'jaligi, sanoat, sog'liqni saqlash, texnologiya va innovatsiyalar kabi turli sohalarda bir nechta muhim kelishuvlar va shartnomalar imzolandi. Bundan tashqari, ikki mamlakat ishbiarmonlar doiralarini yaqinlashtirish va 200 dan ortiq kompaniya va tashkilotlar ishtirokida qo'shma biznes-forum tashkil etish imkoniyati paydo bo'ldi. Ikki davlatning Evropa Ittifoqi va uning Markaziy Osiyo uchun strategiyasi doirasidagi hamkorlikni mustahkamlashdan o'zaro manfaatdorligi sezilarli darajada.

O'zbekiston strategik metallurgiya rivojlaniishi doirasida O'zmetkombinatda po'lat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida (“loyiha”) “O'zmetkombinat” AJ va “DANIELI & C. Officine Meccaniche” AJ o'rtasida o'zaro tushunish memorandumini imzolanishi buning yaqqol misollaridan biridir.

Loyiha tugallangach, po'lat pechining ishlashini ikkilamchi qora metall chiqindilaridan mahalliy temir ruda konlari asosida birlamchi temir-

dan olinadigan temir tarkibli mahsulotlarga (DRI) to'liq o'tkazish imkonini beradi.

Loyiha uchun qo'llanilayotgan texnologiya jahon bozorida mavjud bo'lgan eng zamonaviy va eng ekologik toza hisoblanadi. Bu 4.0 texnologiya to'liq avtomatlashtirilgan texnologiya bo'lib, energiya iste'moli va chiqindilarni optimalashtiradi, shuningdek, kombinatni ekologik sertifikatlar va atrof-muhit xavfsizligi cheklovlarini hisobga olgan holda kelajakdagi jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishga tayyorlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bunday yuqori texnologik tarkibga ega zavodlarning bo'lishi va unda yuqori malakali texnik mutaxassis avlodlarning tarbiyalanishi dunyo hamjamiyati oldida O'zbekistonga obro' e'tibor olib keladi.

Loyiha kombinatga umumiy mahsuldorlikni yiliga ikki yarim million tonnagacha oshirishga imkon beradi. Bu esa yiliga 1,3 million tonna ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ikkinchi po'lat eritish majmuasi, shu jumladan, Elektrda po'lat eritish pechi, ikki pozitsiyali Suyuq po'latni qayta ishlash agregati va navli/blumli Uzluksiz po'lat quyish uskunasi to'liq qurib tugallanganidan so'ng amalga oshiriladi. Loyihaning qiymati 300 million evroni tashkil qiladi. Loyihaning muhim omili mahalliy xomashyoga o'tish bo'lib, bu O'zbekiston Respublikasida metallurgiyaning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

BUGUNGI SONDA

TABRIK

Bayramlar muborak bo'lsin! 2

BAYRAM

Qurbon hayiti muborak bo'lsin! 3

MEHNAT JAMOALARIDAN

Rejalar ortig'i bilan ado etilyapti 4

ILMIY, AMALIY TAJRIBA

Uch bosqichli himoya modeli 5

JARAYON

Saylovchilar bilan tashviqot uchrashuvi 6

DAVR MUAMMOSI

Biz korrupsiyaga qarshimiz! 8

SO'RAGAN EDINGIZ

Umumxalq bayramlari dam olish kuniga to'g'ri kelganda nima bo'ladi? 9

SPORT

Jahon chempionati ishtirokchilari bilan suhbat 10

SALOMATLIK

O'zbekistonning sarxil mevalari 11

IBRATLI HIKOYA

Ortga yo'l yo'q 12



27-IYUN – MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI!

"...Bugun huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, jurnalistikaning butun dunyoda e'tirof etilgan, o'zgaras talab va mezonlariga amal qilishimiz zarur. Bu mezonlarning eng asosiysi – xolislik va haqqoniylikdir. Binobarin, matbuot maydoniga kirgan inson – u jurnalist bo'ladimi, blogger bo'ladimi, bundan qat'i nazar – ana shu qoidalarga amal qilishi shart..."

Shavkat Mirziyoyev

E'tirof etish o'rinli, so'z va matbuot erkinligi Yangi O'zbekistonda tom ma'noda yangi bosqichda namoyon bo'ldi. Bunda avvalo davlat rahbarining ushbu sohaga qaratgan e'tibori bosh mezondir. Qolaversa, mamlakatimizda mavjud ommaviy axborot vositalarining turli yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan jurnalist kadrlar salohiyati oshib borayotgani hamda sohaning asosiy shiori sanalgan xolislik va shaffoflik tendensiyalari faoliyatning muhim talabi bo'lib kelayotgani ham beqiyos ahamiyat kasb etadi, albatta.

Muhtaram Prezidentimizning "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zmetkombinat" AJ Matbuot xizmati tomonidan qator salmoqli ishlar olib borilmoqda. Xususan, kombinatning "Metallurg minbari" hamda "За металл" gazetalarini tamoman yangicha uslubda chop etilmoqda. Rasmiy veb-sayt uzbeksteel.uz ham to'liq yangilanish arafasida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimiz esa shiddat bilan o'z faoliyatini olib bormoqda. Albatta, oldimizga maqsad qilib qo'ygan rejalarimiz bisyor. Ularni amalga oshirish uchun butun jamoamiz bilan astoydil harakat qilmoqdamiz.

Fursatdan foydalanib, sadoqatli va zahmatkash ommaviy axborot vositalari xodimlarini ushbu bayram bilan chin yurakdan tabriklar ekanmiz, ularga mustahkam sog'lik, oilaviy xotirjamlik, mashaqqatli mehnat yo'llarida muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Sarvinoz SHERALIYEVA
Matbuot xizmati boshlig'i

30-IYUN – YOSHLAR KUNI!

Mamlakatimizda 30-iyun – Yoshlar kuni sifatida keng nishonlanishi yaxshi an'anaga aylandi. Bu bayram zamirida Yangi O'zbekiston yoshlarining porloq kelajagiga qaratilayotgan ulkan e'tibor va g'amxo'rlik mujassam. Jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishdek umummilliy maqsadni amalga oshirish uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlari safarbar etilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini borasida mustahkam tashkiliy va huquqiy asoslar yaratilgan.

Bugun o'zining ijodiy va intellektual salohiyati, tanlagan kasb yo'nalishi va ijtimoiy hayotda erishgan muhim natijalari bilan turli sohalarda yurtimiz ravnaqiga, uning xalqaro nufuzini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotgan, tengdoshlariga o'rnak va namuna bo'lib kelayotgan faol va yetakchi yoshlarimiz talaygina. Biz ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz.



Shu fursatdan foydalanib, barcha tengdoshlarimizni Yoshlar kuni bilan samimiy qutlaymiz. Ularga sihat-salomatlik, ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz! Ilm o'rganishdan, ko'zlagan maqsadlaringiz sari dadil qadamlar tashlashdan charchamang!

Abdug'afvor MIRZAYEV
Yoshlar yetakchilari kengashi raisi

2-IYUL – "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBI TO'G'RI SIDA"GI QONUN QABUL QILINGAN KUN

Gerb har bir davlatning ramzi, xalqning timsolidir.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonun 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan.

Davlat gerbi dumaloq ko'rinishga ega bo'lib, shaklining so'l tomoni rizq-ro'zimiz timsoli — bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa o'zbekning dong'ini dunyoga taratgan bebaho boyligimiz — chanoqlari ochilgan g'ozga shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan. Uzoqdagi tog'lar va daryolar manzarasida gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi.



Gerbning yuqori qis-mida esa O'zbekiston ozodligining ramzi sifatida sak-kizburchak yulduz, uning ichki qismida yarimoy va yulduz ma'nosi mamlakat aholisining ko'p qismi islom diniga etiqod qilishi, markazida — baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan.

Davlatimiz ramzi bo'lgan gerbni sevish, uni hurmat qilish va u bilan faxrlanish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Nigora ATAHANOVA
Boshqaruv raisi - bosh direktor maslahatchisi

26-IYUN – XALQARO GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH KUNI

Insoniyat tarraqiyotning yangi-yangi cho'qqilarini zabt etmoqda. Biroq jahonda xalqlar, millatlar kelajagiga tahdid soluvchi bir qancha omillar hamon saqlanib qolmoqda. Ana shunday xatarlardan biri giyohvandlik balosidir. Global muammoga aylangan ushbu illatga qarshi kurashishda davlatlararo hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng achinarlisi, giyohvandlik og'ir jinoyatlarning sodir etilishiga, oilalar va millat genofondining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 286 milliondan ortiq odam giyohvandlikdardigayo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi. Shu boisdan, giyohvandlikka qarshi qurashni kuchaytirish maqsadida BMT tomonidan "Narkotik moddalar to'g'risida"gi, "Psixotrop moddalar" hamda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi qurash tug'risida"gi konvensiyalar qabul qilinib, 1987-yil 7-dekabrda 47/112-sonli rezolyusiyasiga ko'ra "26-iyun – Xalqaro



narkotik moddalarini iste'mol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni" deb e'lon qilingan.

Bugungi kunda giyohvandlik – XXI asrning global muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. O'rta asrlarda insoniyat hayotiga jiddiy xavf solgan vabo va o'lat kabi ofatlar bugungi sivilizatsiya zamoniga kelib o'z o'rnini giyohvandlik illatiga bo'shatib berdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Sog'lom turmush tarzini olib borayotgan kishi bilib-bilmay bu ko'chaga kirib qolsa, o'zining tinch, farovon va baxtli hayotini qora zulmatga aylantirishi ayni haqiqat. Giyohvand kishi nafaqat o'ziga, balki yaqinlariga ham to'xtovsiz azob beradi. Undan tug'ilajak farzandlar esa o'tanasining xatosi oqibatida bir umrga majruhlik

qismatiga muhtalo bo'ladilar.

Ba'zan giyohvandlik qurboniga aylanib qolgan insonlarning qismatini ko'rib, ularga nisbatan nafrat, qahr va rahm tuyg'ularining uyg'onishi tabiiy. Ularning quriyotgan daraxt misol umri evaziga ayrim qora niyatli yovuz kimsalarning hamyoni qappaymoqda. Odam qiyofasidagi bunday maxluqlarning qora og'uni voyaga yetmagan yoshlar orasida tarqatib, uni iste'mol qilishga targ'ib qilayotganiga jim qarab turib bo'lmaydi, albatta.

Dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan, bor kuch-g'ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o'rganishga sarflashi kerak bo'lgan bir paytda, o'smirlarni aldov yo'li bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotgan kimsalar ozmi? Qanchadan qancha oilalarning yostig'ini quritayotgan giyohvandlikka qarshi har bir inson o'zi kurashmog'i, tashqi ta'sirlardan himoyalalmog'i lozim. Voyaga yetayotgan farzandlarimiz O'zbekistonning kelajak vorislaridir. Ularni mana shunday sog'lom muhitda, ezgu tushunchalarni yuraklariga joylab voyaga yetkazaylikki, hech qanday tashqi salbiy xurujlar va qora illatlar o'p'qoni ularni o'ziga jalb qila olmasin.

Mehr oqibat va ezgulik bayrami

IYDI QURBON MUBORAK BO'LSIN

**MUHTARAM VA HURMATLI, AZIZ VA QADRLI BEKOBODLIKAR,
MUBORAK QURBON HAYITLARINGIZ QUTLUG' BO'LSIN!**

Barcha yurtdoshlarimizni muborak Qurbon hayiti bilan samimiy qutlayman! Alloh taolo bu ulug' oy, ulug' daha, ulug' kunlarda dono xalqimiz tomonidan turli xil o'rinlarda har xil shakllarda ado etilayotgan yaxshi, chiroyli, xayrli, savobli amallarining sharofatidan yurtimizga fayzu ilohiy, xayr-baraka yog'dirsini!

Mehribon Parvardigorimiz oilaviy hayot, o'qish, ish, dehqonchilik, kasb-korlarimizda ko'pdan ko'p omadlar, muvaffaqiyatlar, xayr-barakalar, baxt-saodatlar, xursandchiliklar ato etsin!

Iloho Parvardigori olam jannatmakon yurtimiz tinchligi, muqaddas Vatanimiz ravnaqi, dono xalqimiz salomatligi va farovonligi, muborak dinimiz kamoloti yo'lida olib borilayotgan barcha xayrli ishlarda Alloh taolo madadkor bo'lsin!

Mehribon Parvardigorimiz O'zi – eshitib, ko'rib va bilib turuvchi Zot! Hammalarimizning dilimizdagi niyatlarimizni, qalbimizdagi orzularimizni va barcha hojatlaringizni o'ylaganimizdan ham afzali-ziyodasi bilan ravo aylasin!

Muborak Qurbon Hayitlaringiz qutlug' va muborak bo'lsin!

**IBROHIMJON DOMLA INOMOV,
O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASINING
TOSHKENT VILOYATIDAGI BOSH VAKILI O'RINBOSARI.**

ULUG' AYYOM

Alloh taologa hamdu sanolar, Payg'ambarimiz Muhammad sol-lallohu alayhi vasallamga durudu salovatlar bo'lsin. Azizlar, mana Qurbon hayiti bayrami ham tobora yaqinlashib kelmoqda. Siz azizlarni ushbu ulug' bayram bilan chin qal-bimdan muborakbod etaman. Alloh taolo yurtimizni tinch, osoyishta, xalqimizni farovon aylab, kelayotgan Qurbon hayiti barakoti bilan el-yurtimizni, xonadonlarimizni, dexqonchilik va kasbu korlarimizni fayzu barakotlarga to'ldirib, xalqimizni mehrlil oqibatli qilsin.

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarida bo'lgani kabi diniy sohada ham keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Alloh taolo biz bandalarini O'zining behisob ne'matlaridan bahramand etgan ekan, o'z navbatida ana shu ne'matlarining qadriga yetib, shukrini ado etib borishimizga buyuradi. Robbimizning ne'matlarini katta-kichik demay, shukrini bajo keltirishimiz zim-mamizdagi burchdir. Shu bilan birga Alloh taoloning shariatiga amal qilib, O'zi buyurganidek iymon-e'tiqodda va taqvoda hayot kechirib borsak, Alloh taolo ulkan mukofotlarni va'da qilgan.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizlarga Islomning ikki ulug' bayrami xabarini berganlar: **"Alloh taolo Islomgacha bo'lgan davrda nishonlaydigan bayramlar o'rniga afzalroq bo'lgan Ramazon va Qurbon hayiti bayramini hadya qildi"-de-ganlar (Abu Dovud rivoyati).**

QURBONLIK QILISH
QOIDALARI

Shu kunlarda barcha dunyo musulmonlari, jumladan, yurtimizda ham ana shu ulug' bayramlardan biri – Qurbon hayitini katta shukuh va xursandchilik ila nishonlash ostonasida turibdi.

Alloh taolo bu kunda bizlarni hayit namozini o'qishga, qurbi yetgan kishilarni esa qurbonlik qilishga buyurgan. Bu haqda Qur'oni



karimda bir necha oyati karimalar nozil bo'lgan:

"(Qurbon qilinadigan) tuya va sigirlarni Biz sizlar uchun Allohning shiorlaridan qildik. Sizlar uchun ularda yaxshilik bordir" (Haj surasi, 36-oyat).

Yana bir oyati karimada shunday bayon qilingan:

"Bas, Rabbingiz uchun namoz o'qing va qurbonlik qiling!" (Kavsar surasi, 2-oyat).

Ushbu oyati karimani olimlarimiz qurbonlikning vojib ekanligiga dalolat qiladi, deb tafsir qilishgan.

Fuqaholarimiz qurbonlikni ta'riflab, "Qurbonlik bu – maxsus hayvonni maxsus vaqtda so'yishdir", – deganlar.

Qurbonlik haqida Baro ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

"Darhaqiqat, bugungi kunda ishimizni avval iydu azho (qurbon hayiti) namozini o'qish, so'ngra (uy-larimiz-ga) qaytib, qurbonlik bilan bosh-lashimiz kerak. Kimki, shularni bajarsa, u sunnatimizga muvofiq ish qilibdi. Kimdakim, hayit

namozidan oldin so'ysa, u qurbonlik emas, balki o'z ahli uchun taqdim qilgan go'shtdir" (Imom Buxoriy rivoyati).

Hanafiy mazhabi bo'yicha qurbonlik qilish – vojibdir. Qurbonlik qilish hur, balog'at yoshiga yetgan, oqil, muqim, ya'ni safarda bo'lmagan va garchi bir yil aylanmagan zakot nisobiga ega bo'lgan musulmon shaxsga vojib bo'ladi. Qurbonlikni Zulhijja oyining o'n, o'n bir va o'n ikkinchi kunning ya'ni, bugun, erta va ertadan keyingi kunning Shom namozini vaqti kirgunigacha qilinadi. Qurbonlik uchun so'yiladigan hayvonlar kamida besh yoshga to'lgan tuya, ikki yoshga to'lgan qoramol, bir yoshga to'lgan qo'y va echki qurbonlik qilinadi. Olti oylik qo'yni ham, agar jussasi bir yoshga to'lgan qo'y jussasidek bo'lsa, qurbonlik uchun so'yish mumkindir.

MEHR-OQIBAT BAYRAMI

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga muvofiq bayram kunlarida o'zaro mehr-oqibatni, muruvvatni, hamkorlik va birodarlikni yana ham kuchaytirishimiz ayni muddaodir. Shuningdek, bu muborak kunlarda ota-onalarimizni, ustozlarimizni, qarindosh-urug'lar, yor-birodarlar-

ni, bemor va muhtojlarni ziyorat qilish, hol-ahvol so'rash, ularga hadyalar berib, shirin so'zlarimiz bilan xushnud etish bayram kayfiyatiga yanada quvonch bag'ishlaydi.

Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: Ibn Abbas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: **"Bu kunlarda qilingan yaxshi ishlar boshqa kunlardagidan Alloh taolaga suyuqliroqdir" (Imom Buxoriy rivoyati).**

Shunday ekan, ayrim sabablar bilan o'zaro arazlashgan gina-qudratli kishilar ham bir-birlarini muborak bayram kunida kechirib, o'zaro uzrlar aytib, bir-birlariga quchoq ochishlari lozim bo'ladi. Bu kun barchaga quvonch ulashiladigan kundir.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu kunda yanada mehribonroq, shafqatliroq bo'lar, yetim-yesirlar boshini silar, qariyalar, kasalmandlar, kam ta'minlanganlardan xabar olar, ularning ko'ngillariga ham bayram shukuhini olib kirar edilar. Hadisda shunday marhamat qilinadi:

Ibn Abbas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ayt-dilar: **"O'zi to'q bo'laturib, yon qo'shnisi och bo'lgan kishi komil mo'min emas" (Imom Ahmad rivoyati).**

Demak, atrofimizdagi qurbonlik qilishga qodir bo'lmagan qo'ni-qo'shnilarimizni ahvollaridan xabar olib, ularga qurbonlik go'shtlaridan ham ulashishimiz iymonimizni yanada mukammal qiluvchi omil ekan.

Alloh taolo barchamizni hayitlarga salomat yetkazsin! Qurbonlik va shu kabi O'zi rozi bo'ladigan amallarda bardavom qilib, ikki dunyo saodatiga musharraf aylasin! Omin!

**Ergashboy HAMIDOV,
Bekobod shahar "Oq masjid"
jome masjidi imom xatibi**



SANOAT YETAKCHILARI QANDAY FIKRDA?

"O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisining o'rinbosari - moliya direktori Tatyana Budey O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Jahon banki bilan birgalikda tashkil etilgan Konchilik va metallurgiya sanoatini rivojlantirish bo'yicha konferensiyada korxonaning rivojlanish istiqbollari taqdim etdi.

Joriy yilning 21-iyun kuni Toshkent shahrida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Jahon banki bilan hamkorlikda Konchilik va metallurgiya sanoatini rivojlantirish mavzusida xalqaro darajadagi konferensiya tashkil qilindi.

Tadbirda tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi xalqaro hamda mahalliy yetakchi korxonalar, nufuzli xalqaro moliya institutlari va banklar, salohiyatli investorlar, mustaqil ekspertlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishtirok etdi.

"O'zbekistonda tog'-kon sanoatining kelajagi: sanoat yetakchilari qanday fikrda? mavzusidagi nutq doirasida "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisining o'rinbosari - Moliya direktori Tatyana Budey "O'zmetkombinat" Ajning mamlakat metallurgiya sanoati va iqtisodiyot tarmog'idagi rolini qayd etdi.

Shuningdek, T. Budey o'z taqdimotida kombinatni rivojlantirish istiqbollari, amalga oshirilayotgan transformatsiya va investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayoni to'g'risida ma'lumotlar berib o'tdi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar ko'rib chiqilayotgan mavzular bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar, shuningdek, tog'-kon va metallurgiya sanoatini rivojlantirish sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar hamda istiqbolli maqsadlar yuzasidan o'z fikrlarini bildirdilar.

MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING KOMBINAT IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Kombinatimizning asosiy sexlarini to'xtovsiz va uzluksiz ishlashi uchun kerakli bo'lgan metall butlovchi ehtiyot qismlarini tayyorlab va mavjudlarini ta'mirlab berayotgan Metall konstruksiyalar sexida ishlar doimgidek avjida. Sex mehnatkashlari oldilariga qo'yilgan vazifalarni ortig'i bilan, eng asosiysi o'z vaqtida va sifatli bajarib kelmoqda.

Sex ishchi-xodimlari tomonidan Mahalliy-lashtirish dasturi doirasida ishlar olib borilmoqda. Jumladan, avvallari import hisobiga olib kelinayotgan Elektrda po'lat eritish sexi DSP-100 UMK pechining suv bilan sovutiladigan panellari, elektrod ushlagich ustunlari, asosiy va oraliq kovshlar uchun qopqoqlar, Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexi RVP-25,5 MVA pechining siqish xalqalari, sovutish qoplamlari, RVP-7,5 MVA pechining suv bilan sovutiladigan svod segmentlari, siqish xalqalari tayyorlanayapti.

Bundan tashqari, sex tomonidan Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar ishlab chiqarish sexining tola hosil qiluvchi kameraning zanjirlari, reykalari va panellari

ham tayyorlab berildi. Temir-tersaklarni qayta ishlash sexiga "O'rgimchaksimon" greyferlar ham o'z vaqtida yetkazib berilyapti.

Shuningdek, kombinatimizda barpo etilayotgan Quyuv-prokatlash majmuasi 6-sonli "Issiq prokatlash stani uchastkasi" uchun 1500 tonna og'irlikdagi kolonnalar, fermalar, kran osti balkalari, zinapoyalar, faxverklar va boshqa metall konstruksiyalar aynan shu sexda tayyorlanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, sex ishchi-xodimlari tomonidan olib borilayotgan mahalliy-lashtirish dasturi doirasidagi chora-tadbirlar natijasida katta iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda.

MODERNIZATSIYA – TEJAMKORLIK VA QULAYLIK OMILI

Energetika sexining Suv saqlash inshooti "Dalvarzin" kanalidan olinadigan suvga kimyoviy yo'l bilan ishlov berib, filtrlab tozalaydi, so'ngra kombinatimizning barcha sexlariga ichimlik, texnik, sug'orish tizimi uchun va yong'in xavfiga qarshi ishlatish maqsadida foydalaniladigan suvlar bilan to'liq va to'xtovsiz ta'minlaydi. Bundan tashqari, shahrimizning "Sayxun" hamda "Metallurg" mahallalarini ham doimiy ravishda ichimlik suvi bilan uzluksiz ta'minlab boradi.



Bugungi kunda kombinat bosh energetigi tashabbusi bilan kombinat rahbariyatining moliyaviy ko'magi asosida inshootning 2-ko'tarma nasos stansiyasidagi ma'nan va jismonan eskirgan jihozlar yangisiga almashtirilmoqda.

Jumladan, 3 ta ichimlik suvi nasosi, 3 ta texnik suv nasosi, suv quvurlari, qaytish klapanlari, suvni ochib-yopishga mo'ljallangan zulfinlar ham to'liq zamonaviy turdagi energoqurilmalarga almashtirilmoqda.

Bu ishlar negzida, avvalo, iste'molchilarni uzluksiz hamda kerakli bosimda suv bilan ta'minlashga va, albatta, muddatini o'tagan qurilmalar bilan ortiqcha sarflanayotgan elektroenergiya tejamkorligiga erishiladi. Avvallari 2 ta suv nasosi bajargan ishni endilikda 1 ta suv nasosi bajaradi.

Kapital qurilish va qurilish-montaj ishlari boshqarmasiga qarashli Qurilish-montaj bo'linmasining ishchi-xodimlari jalb qilingan holda hozirda Suv saqlash inshootining barcha bino va inshootlarida uning ishchi-xodimlariga qulay sharoit yaratish maqsadida havo almashtirgichlar (ventilyator) o'rnatildi, qishda sovuqdan himoyalash va ochiq hovuzning sanitar holati to'liq saqlanishi uchun zamonaviy plastik romlar o'rnatilmoqda. Shuningdek, suvash-bo'yash ishlari ham bajarilyapti.



REJALAR ORTIG'I BILAN ADO ETILYAPTI

Kombinatimizning asosiy sexlaridan biri bo'lgan Zoldir prokat sexi jamoasi oldilariga qo'yilgan vazifalarni ortig'i bilan bajarib kelishmoqda.

Joriy yilning may oyida mazkur sexda diametri 40, 65, 100 va 120 mm. bo'lgan po'lat zoldirlar hamda diametri 65, 100, 120 mm. bo'lgan aylana profilli navli prokat mahsulotlaridan jami 23 800 tonna ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi. Jonkuyar va mehnatsevar ishchi-xodimlar tomonidan esa 26 201 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, oylik reja 110 foizga ado etildi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 16 358,310 tonnasi realizatsiya qilindi.

Jumladan, diametri 40, 65, 100 hamda 120 mm.li po'lat zoldirlardan 6 950,900 tonnasi Olmaliq, 9 249,750 tonnasi Navoiy kon-metallurgiya kombinatlariga yuklab jo'natildi. Shu bilan birga, diametri 100 mm.li po'lat zoldirlardan 24,460 tonna hamda diametri 65, 100, 120 mm.li aylana profilli prokat mahsulotlaridan 133,200 tonnasi respublikamizdagi boshqa korxonalariga yuborilgan.

MUVAFFAQIYATIMIZ SIRI – HAMJIHATLIKDA

Kombinatimizning Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish sexida tayyorlanayotgan mahsulotlarga bo'lgan talabning yuqoriligi har bir ishchi-xodimning o'z ishiga mas'uliyatli yondashishiga undaydi. Ishlab chiqarish jarayoniga nazar solsangiz, o'zaro hamjihatlikda ishlayotgan ishchi-xodimlarning tayyorlayotgan mahsulotlari ko'zingizni quvontiradi. Sex mehnatkashlari tomonidan joriy yilning may oyida 270 tonna o'rniga 297 tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarilib, oylik reja 110 foizga bajarildi.

XIMICH sexida tayyorlanayotgan bejirim va nafis ishlangan, turli xildagi bezaklar bilan bezatilgan sirlangan po'lat idishlar ichki bozorlarimiz ehtiyojini qondiribgina qolmay, balki qo'shni respublikalarga ham eksport qilinmoqda. O'tgan oyda mahsulotlar Chexiya, Moldaviya, Ozarbayjon, Qozog'iston hamda Rossiyaning Yekaterinburg shahriga yuklab jo'natildi.



UCH BOSQICHLI HIMOYA MODELI



Joriy yilning 25 - 26-may kunlari Xodimlarni malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasida "O'zmetkombinat" AJda taval-kalchiliklarni boshqarish siyosatiga muvofiq "Uch bosqichli himoya" modeli doirasida kom-binatning bir qator tarkibiy bo'linmalari risk koordinatorlari uchun seminar-trening bo'lib o'tdi.

Seminar-treningni kombinatning komplayens bo'yicha maslahatchisi Erjan Akatayev olib bordi. O'tkazilgan seminar-treningda tinglovchilar kombinatda "Uch bosqichli himoya" modelini amalga oshirish orqali korrupsiya xavflarini aniqlab, oldini olish, tahlil qilish, baholash va ularga javob berish uchun yetarli choralarni ishlab chiqish ko'nikmalarini o'zlashtirdilar.

Shuningdek, seminar-treningda zamonaviy muvofiqlik tizimini rivojlantirish, korrupsiya xavflarining oldini olish va kombinat amaliyotiga tegishli standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH DASTURI DOIRASIDA

10 akademik soat davom etgan o'quv mashg'ulotlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va oldini olishning zamonaviy tizimini o'zlashtirishga bag'ishlandi. Kombinatning komplayens bo'yicha maslahatchisi Erjan Akatayev tomonidan olib borilgan mashg'ulotlarda tinglovchilar ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurash boshqaruv tizimi" standarti talablarini o'rgandilar, xavf-xatarli jarayonlar va korrupsiyaviy xavflar reyestrini amaliy shakl-lantirish muhokamasida ishtirok etdilar.



Seminarining yakuniy qismida kombinat Komplayens xizmati rahbari Alisher Badalbayer so'zga chiqib, seminar tinglovchilari e'tiborini davlatimizning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tashabbuslariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiya xavflarini bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va bu borada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga qaratdi.

Shuningdek, "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati hududiy va tarkibiy bo'linmalari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar, manfaatlar to'qnashuvlarini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabardor qilish mexanizmlarini o'zida mujassam etgan tizimning ishlashi va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

Interaktiv usulda tashkil etilgan seminar - tadbirda ishtirok etgan tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob oldilar.

Olmalik shahridagi Rossiyaning Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS" filiali hamda Toshkent davlat texnika universiteti Olmalik filiali professor o'qituvchi va talabalar O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashining Bekobod hududiy filiali xodimlari bilan hamkorligi doirasida "O'zmetkombinat" AJ ishlab chiqarish jarayonlariga ekskursiya uyushtirdilar.

NAZARIYANI AMALIYOT BILAN BOG'LASHNING ENG SAMARALI USULI

Ekskursiya avvalida talabalarga Mehnat muhofazasi bo'limi tomonidan nazariy tushunchalar berilgach, kombinat tarixi muzeyi, Elektrda po'lat eritish, Navli prokat hamda Rangli metallar ishlab chiqarish sexlarining ish faoliyati bilan tanishtirildi.

Jumladan, pechda po'lat eritilishi jarayonlari, mahsulot turlari, ularning sifati, buyurtmachilarga etkazib berish, sexlardagi soha xodimlarining ish vazifalari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Professor o'qituvchilar va talabalarining fikrlariga ko'ra, ular uchun kombinatdagi ishlab chiqarish jarayonlari juda qiziqarli va foydali bo'ldi.



Keyinchalik hamkorlikda davom ettiriladigan va tashkil-lashtiriladigan bu kabi ekskursiyalar talabalar uchun sohalari bo'yicha chuqurlashtirilgan amaliy bilimlarini oshirish, metallurgiya haqida kengaytirilgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Ekskursiya davomida kombinat boshqaruv raisi - bosh direktorning yoshlar siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi, O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashining Bekobod hududiy filiali, Xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi mas'ul vakillari hamrohlik qilishdi.

O'QUVCHILARNING SANOAT EKSKURSIYASI

Bekobod shahar kasb-hunar maktabining 1-bosqich Elektrik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan bir guruh o'quvchilari olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash maqsadida kombinatimizga tashrif buyurishdi. O'quvchilarga Xodimlarni malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi tomonidan ekskursiya tashkil qilindi.

Ular dastlab, Elektr uskunalari ta'mirlash sexida bo'lib, elektr uskunalari ta'mirlash jarayonlari bilan yaqindan tanishdi-



lar. Elektr uskunalari ta'mirlash sexi xodimlari sexdagi ta'mirlash ishlarini o'quvchilarga bosqichma-bosqich tushuntirishdi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan batafsil javob oldilar.

O'quvchilar ekskursiya davomida Elektrda po'lat eritish sexiga ham borishib, sexdagi ishlab chiqarish jarayonlarini ko'zdan kechirishdi. Tashkil etilgan ekskursiyadan bo'lajak elektrklar yetarlicha taassurotlarga ega bo'lishdi va kasblariga bo'lgan qiziqishlari yanada ortdi.

HAM NAZARIY, HAM AMALIY BILIMLARI OSHIRILMOQDA

Kombinat xodimlarini "Kran mashinisti" kasbi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish maqsadida, joriy yilning 24-maydan 5-iyun kuni qadar "O'zmetkombinat" AJning Xodimlarni malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasida "Yuk ko'tarish kranlari ekspluatatsiyasi" mavzusi bo'yicha o'quv kursi tashkil qilindi.

O'quv jarayonlari ham nazariy, ham amaliy tarzda tashkillashtirilgan bo'lib, unda xodim-

larning yuk ko'tarish kranlari qoidalari, ularning soz holatda ekanligini tekshirish, ishlab-chiqaruvchi tashkilotning ekspluatatsiya qilish bo'yicha yo'riqnomasiga muvofiq rejali ta'mirlash ishlarini olib borish kabi mavzular-dagi bilim va ko'nikmalari oshirildi. Shu bilan bir qatorda yuk ko'tarish kranlarida nosozliklar aniqlansa, uni o'z vaqtida qanday bartaraf etish kerakligi ham tushuntirildi.

MAQSADLI O'QUV KURSLARI

Kombinat tarkibiy bo'linmalari buyurtmalariga asosan elektrotexnika xodimlarning sohaga oid malakalarini yanada oshirish maqsadida o'quv kursi tashkil qilindi.

O'quv kursi Xodimlarni malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasida "Xodimlarni elektrotexnika-ga oid bilimlarini va kasbiy ko'nikmalarini orttirish bo'yicha maqsadli o'quv kursi" mavzusida bo'lib o'tdi.

O'quv kursini kombinatimizning malakali mutaxassislari olib borishdi. Ushbu kurs ishlab chiqarishdan ajralgan holda, joriy yilning 25-may kuni boshlangan bo'lib, 14-iyungacha davom etdi. O'quv kursiga tarkibiy bo'linmalardan 21 nafar ishchi-xodim jalb qilindi.

YUK ILUVCHI KASBI BO'YICHA

Kombinatning "Ikkilamchiqorametallar" departamenti viloyatlardagi filiallari ishchi-xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida Xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqarishdan ajralgan holda Yuk iluvchi kasbi bo'yicha qayta tayyorlash kursi tashkil etildi.

Ushbu o'quv kursida respublikamizning turli viloyatlaridan 13 nafar xodimimiz o'qitildi va bilimlari sinovdan o'tkazildi. O'quv kursiga o'qituvchi sifatida kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi muhandis Voit Yormatov va Elektr ta'mirlash sexi ustasi Ulug'bek Nor-kuziyevlar jalb qilindi.

Amaliy mashg'ulotlar Elektr ta'mirlash sexining maxsus ajratilgan joylarida o'tkazildi. Mashg'ulotlarning sifatli olib borilishini kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi muhandis Shuhrat Abduvaliyev nazorat qilib bordi. Amaliy mashg'ulotlar o'tish davrida xodimlarning texnika xavfsizligi qoidalari to'liq ta'minlandi.

Sheroz Shukuraliyev tayyorladi



SAYLASH VA SAYLANISH HUQUQI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 128-MODDASIGA KO'RA:

- "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi".
- O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali, ochiq va oshkora o'tkaziladi.
- Saylov kuni hamda saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

- Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.
- Muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi joriy yilning 9-iyul sanasida o'tkaziladi.

SAYLOVCHILAR BILAN TASHVIQOT UCHRASHUVI

Metallurglar madaniyat saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga O'zLiDePdan ko'rsatilgan nomzod Shavkat Mirziyoyevning Toshkent viloyatidagi ishonchli vakili Sayyora Fayziyevaning aholi vakillari, turli soha xodimlari, deputatlar, davlat va jamoat arboblari, faxriylar, nuroniylar, yoshlar hamda "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ ishchi-xodimlaridan iborat saylovchilar bilan tashviqot uchrashuvi tashkil etildi.

Partiya nomzodining ishonchli vakili Sayyora Fayziyeva saylovchilarga Shavkat Mirziyoyevning hayoti, mehnat faoliyati, insoniy fazilatlarini borasida atroflicha to'xtalib, beshta ustuvor maqsadni qamrab olgan saylovoldi dasturini bandma-band izohlab, unda keltirilgan xalqchil tashabbus va konseptual g'oya va maqsadlar, ustuvor vazifalar borasida batafsil ma'lumot berdi.

Xususan, 2022-yil boshida aholi soni 3 millionga yetgan Toshkent viloyatining og'riqli nuqtalaridan biri uy-joy bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidledi. Ishonchli vakil Sayyora Fayziyevaning ta'kidlashicha, so'nggi 6 yilda yurtimizda inson qadri uchun tamoyili asosidagi islohotlar natijasida aholining band-

ligi oshib, sog'liqni saqlash, ta'lim sohalari isloh qilinib, ayollarga munosabat, yoshlarga e'tibor tubdan o'zgardi.

Partiya nomzodining ushbu saylovoldi dasturi o'z mazmun-mohiyati bilan 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining mantiqiy va uzviy davomi ekaniga urg'u berildi. Saylovoldi dasturining tub zamirida "Inson qadri uchun" tamoyili hamda "Avval inson, keyin jamiyat va davlat" degan xalqchil g'oya yotganini ta'kidledi.

Uchrashuvda so'zga chiqqan "O'zmetkombinat" AJ "Metallurg" shifoxonasi bosh shifokori Zarema Strigina, Bekobod shahar "Jomiy" mahalla fuqarolar yig'inida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha shahar hokimi yordamchisi O'g'uljon Mirzomurotova, Bekobod shahar "Marifat" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Muxammadi Sanginov, Bekobod shahar "Tomiris school" xususiy maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Dilbar Sodiqovalar so'nggi olti yilda yurtimizda olib borilgan oqilona siyosat, bunyodkorliklar, yangilanishlar haqida fikr yuritishdi.



Mazkur ijobiy o'zgarishlarni hayotlarida xis qilishayotgani, inson qadri yuksaltiradigan islohotlarning davomiy bo'lishini istashlarini bildirishdi. Shu bois barchani o'zining xalqchil islohotlari bilan nafaqat yurtimiz, balki qo'shni qardosh xalqlar orasida ham keng e'tirof etilayotgan Shavkat Mirziyoyev nomzodini qo'llab-quvvatlab, ovoz berishga chaqirishdi.

Tadbir yakunida ishonchli vakil Sayyora Fayziyeva yig'ilganlarni mamlakat salohiyatini har tomonlama yuksaltirish tarafdori bo'lgan Yangi muhtasham O'zbekistonning jonkuyar bunyodkori Shavkat Mirziyoyevga ovoz berishga chorladi.

Zuxro Mirzohammadova,
O'zLiDeP Toshkent viloyat
Kengashi bo'lim mudiri

QUYUV-PROKAT MAJMUASINI QURISH LOYIHASINING DASTLABKI "ATROF-MUHIT VA IJTIMOY SOHAGA TA'SIRLARINI BAHOLASH"NI O'TKAZISHI HAQIDA

Ayni paytda "O'zmetkombinat" AJda Quyuv-prokat majmuasini (QPM) qurish ishlari olib borilmoqda. QPM kombinatning sanoat maydonchasida joylashgan bo'lib, past legirlangan yuqori sifatli va oddiy sifatli po'latlardan issiq prokatlangan rulonlar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. QPM infratuzilmasi "O'zmetkombinat" AJning tegishli obyektlari bilan integrasiya qilindi. Mazkur loyiha sanoat maydonchasidan obyektlar uzunligi 23 km bo'lgan 220 kV elektr uzatish liniyalarini hamda uzunligi 1,2 km bo'lgan kombinat hududiga kirish yo'lini qurishni nazarda tutadi.

"O'zmetkombinat" AJ loyihani moliyalashtiruvchi kredit tashkilotlarining talablariga muvofiq, shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) standartlariga muvofiq "Atrof-muhit va ijtimoiy sohaga ta'sirlarni baholash" (AMvaISTB)ni o'tkazadi.

AMvaISTBning maqsadi - loyihaning ekologik va ijtimoiy ta'sirlarini aniqlash va oldini olish yoki yumshatish maqsadida tegishli choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, atrof-muhit va ijtimoiy xavflarni va ular oqi-



batida kelib chiqadigan ta'sirlarni aniqlashdir. AMvaISTBni amalga oshiruvchilar: "SHANEKO DK" AJ (Rossiya Federatsiyasi) va "Ekostandart Ekspert" MChJ (O'zbekiston Respublikasi).

QPM qurilishi loyihasi dastlabki ekologik va ijtimoiy baholash natijasida manfaatdor tomonlarni tanishtirish uchun quyidagi hujjatlar tayyorlandi:

"O'zmetkombinat" AJ Quyuv-pro-

kat majmuasini qurish" manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi;

"O'zmetkombinat" AJ Quyuv-prokat majmuasini qurish" loyihalasining notexnik xulosasi;

"O'zmetkombinat" AJ Quyuv-prokat majmuasini qurish" AMvaISTBning loyihasi.

AMvaISTBning muhim qismi bu loyiha hududida bevosita istiqomat qiluvchi fuqarolar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini yig'ish uchun mo'ljallan-

gan jamoatchilik maslahatlaridir. Jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar va yakuniy taqdimot Bekobod shahar hokimligida tashkil etiladi. Tadbirida loyihani baholash natijalari to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi va loyihaning asosiy manfaatdor tomonlaridan fikr-mulohazalar yig'iladi.

Mazkur hujjatlar yuzasidan savol, fikr va takliflar "O'zmetkombinat" AJning quyidagi manzillariga elektron, yozma yoki og'zaki tarzda yuborilishi mumkin:

- elektron pochta orqali v.kenjabayev@uzbeksteel.uz

- pochta manziliga: O'zbekiston Respublikasi, 110502 Toshkent viloyati Bekobod shahri Sirdaryo ko'chasi 1.

- Tel. orqali: +998903363313 "O'zmetkombinat" AJning aholi va barcha manfaatdor tomonlardan murojaatlarini (savollar, mulohazalar va takliflar) yig'ish uchun mas'ul vakili - Quyuv-prokat majmuasi yetakchi muhandisi Kenjabayev Vosit Valiyevich.

Murojaatlarga javoblar tegishli murojaatlar mualliflarining manzillariga yuboriladi va AMvaISTB materiallarida umumlashtiriladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida, PF-76-son, 24.05.2023-y.

VAZIRLIK VA IDORALARARO HUJJAT AYLANISHINING YAGONA ELEKTRON TIZIMI JORIY ETILADI

“O'ZMETKOMBINAT” AJDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB, SAMARADORLIK OSHIRILMOQDA

O'zbekiston metallurgiya kombinati o'z faoliyatini avtomatlashtirishga jiddiy kirishgan.

Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132 son Qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar bajarilishining ta'sirchan tizimini yaratishda «ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi o'rnini mustahkamlash, uning ahamiyatini yanada oshirish hamda samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida 2021-yil 1-maydan boshlab «ijro.gov.uz» platformasi orqali davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida, shuningdek, “O'zmetkombinat” AJda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosining ta'minlanishini qulay usulda nazorat qilinishi yo'lga qo'yildi.

«ijro.gov.uz» tizimi negizida davlat xizmatchilari va mahalliy hokimiyat vakillari uchun idoraviy hamda idoralararo hujjatlar almashinuviga yordam beruvchi «edo.ijro.uz» elektron hujjat aylanish tizimi joriy etildi va ishga tushirildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi “Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-76-son Farmoni hamda 2023-yil 24-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirishi hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-162-son qarori ijrosi yuzasidan kombinatda tegishli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, “O'zmetkombinat” AJ Boshqaruv raisining 2022-yil 7-noyabrdagi “O'zmetkombinat” AJda Ish yuritish va hujjatlar ijrosi nazoratini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma”ga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi 1519 pr-son buyrug'i tasdiqlanib, kombinatda qog'ozsiz ish yuritishga o'tish jarayonini jadallashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda, birinchilardan bo'lib «edo.ijro.uz» idoralararo yagona elektron tizimi ishga tushirilgan (2022-yil oktabr oyi).

Ta'kidlash joizki, ushbu tizimni o'z ishlab chiqarish faoliyati jarayoniga birinchilardan bo'lib joriy etgan “O'zmetkombinat” AJ hamisha davr talabi asosida ishlagan va ishlamoqda.

2022-yilda kombinatning 100 nafardan



oshiq rahbar va ishchi-xodimlari «edo.ijro.uz» idoralararo yagona elektron tizimidan foydalanган bo'lsa, bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 500 nafardan oshgan.

«edo.ijro.uz» idoralararo yagona elektron tizimini ishga tushirish jarayonida Hujjatlar tahlili va ijrosini ta'minlash, murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi tomonidan kombinatning barcha tarkibiy bo'linmalari ishchi-xodimlariga o'quv seminarlar tashkil etildi va tizimdagi integratsion o'zgarishlar tufayli hozirgi kunga qadar ushbu o'quv seminarlar davom etib kelmoqda.

Xususan, «edo.ijro.uz» idoralararo yagona elektron tizimi orqali 2022-yil oktabr – dekabr oylarida kombinatda **943 ta** turli hil hujjatlar ro'yxatga olingan bo'lib, (bulardan 313 tasi jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlar) barchasi belgilangan tartibda nazoratga olinib, ijrosi ta'minlangan.

O'zining samarali natijasini ko'rsatayotgan ushbu tizim qator qulayliklarga ega. Tizim qulayligi shundaki, ushbu platforma orqali qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqayotgan topshiriqlarning aniq ijrochisi, ya'ni egasi, shuningdek, ularni bajarish muddatlari ham aniq qilib ko'rsatilib, har bir topshiriq alohida nazoratga olinadi. Bu esa o'z navbatida mas'ullarga belgilangan topshiriq va vazifalarni bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirishga yordam beradi.

Tizimdan foydalanish natijasida – topshiriqlar ijrosi samarali va rejali tashkil qilinaadi, aniq mexanizmlar, muddatlar va mas'ullar belgilanadi, ijro intizomi mustahkamlanib, rahbarlarning shaxsiy mas'uliyati oshib boradi.

Ushbu platforma davlat tashkilotlari uchun taklif etilayotgan professional xizmat – tashkilotning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan tizimdan ko'ra samarali va bir qancha afzalliklarga

ega. Xususan:

- kombinat uchun alohida tizim ishlab chiqish va joriy etish uchun **millionlab mablag'lar sarflanmaydi**;

- har bir hujjat elektron raqamli imzo kalitlari orqali tasdiqlanadi;

- kombinat ichki hujjatlarining (ichki buyruqlar, nazorat rejalari, xizmat xatlari va boshqa hujjatlar) ijro holatini to'liq monitoring qilib borish imkonini beradi;

- tizimdan istalgan joydan turib foydalana olish mumkin;

- barcha davlat organlari o'rtasida elektron hujjat almasha bo'ladi;

- tizimning muntazam ishlab turishi hamda kiberxavfsizligini ta'minlash uchun alohida xodimlar olish

yoki alohida bo'linma tashkil qilish shart emas;

- serverdan katta xotira maydoni sotib olish shart bo'lmaydi;

- IT sohasidagi professionallar xizmatidan foydalanadi.

E'tiborga olish lozim bo'lgan yana bir muhim holat: ortiqcha qog'ozbozlikning oldi olindi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, samaradorlik oshiriladi. Chunki hozirgi kunda kombinat qog'ozbozlikdan to'liq voz kechgan holda faoliyat olib bormoqda. Buning natijasida anchagina qimmat bo'lgan ortiqcha harajatlarning (katta miqdorda oq qog'oz sotib olish) oldi olindi.

Kombinat rahbari hujjatni imzolashi uchun safardan yoki boshqa tadbirdan ofisga kelib o'tirmaydi. Tizimga istalgan joydan yoki mobil telefonlaridan kirib, elektron raqamli imzo orqali tasdiqlaydi. Natijada boshliqni imzosi-ga xodimlar ham boshqa ishlar ham qarab qolmaydi. Bu vaqtning tejalishi va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bugungi kunning dolzarb muammosi – kiberxavfsizlik masalasi tizimda muhim o'rin tutadi. Elektron raqamli imzo orqali imzolagan holatlarda ham hujjatlarini **Photoshop** orqali o'zgartirilgan va firibgarliklarga sabab bo'lgan holatlar kuzatilishi mumkin. «edo.ijro.uz» elektron hujjat aylanish tizimida esa QR kod orqali to'liq va asl hujjat bilan tanishib chiqish mumkin. Bu hujjatlarning yo'qolishi va soxtalashtirilishining oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, «edo.ijro.uz» elektron hujjat aylanish tizimining joriy etilib, hozirgi kundagi keng qamrovli faoliyati kombinatda Ijro intizomining takomillashtirilganligini bildiradi.

Sarvinoz SHERALIYEVA,
Matbuot xizmati boshlig'i.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

KORRUPSIYA NIMA?

Shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida **qonunga xilof ravishda foydalanishi**, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.



KORRUPSIYA OQIBATI

Korrupsiya xavfli harakat!

Korrupsiya fuqarolarning davlat idoralari-ga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga sababchi bo'ladi.

Korrupsiya sizga salbiy ta'sir ko'rsatadi, hattoki siz uning ishtirokchisi bo'lmasangiz ham.

KOMPLAYENS NAZORATI

Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar, banklar va xususiy sektor faoliyatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta'minlovchi, **KORRUPSIYA XAVF-XATARLARI VA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI O'Z VAQTIDA ANIQLASH HAMDA ULARGA CHEK QO'YISH**, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o'zida mujassam etgan samarali tizim.



PORA KO'RINISHLARI

Pora evaziga og'dirib olish, bunda pora berayotgan va olayotgan shaxs o'rtasida avvaldan kelishuv mavjud bo'ladi.

Minnatdorchilik porasi, bunda pora mansabdor shaxs tomonidan sodir etib bo'lingan harakat yoki harakatsizlik uchun (qonuniy yoki noqonuniy) avvaldan kelishuvsiz beriladi.

PORA OLIISH JAZOSI MUQARRAR JINOYATDIR!

PORA OLIISH – mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olish yohud mulkiy manfaatdor bo'lish.

USHBU QILMISH:

BHMning 50 – 100 baravarigacha miqdorda jarima;

2 – 5 yilgacha ozodlikni cheklash;

5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Takroran, ko'p miqdorda, tamagirlik yo'li bilan yoki bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib sodir etilsa:

5 – 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish.

Juda ko'p miqdorda yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa:

10 – 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

“O'zmetkombinat” AJ va uning hududiy filiallarida korrupsiyaviy xatti-harakatlar, xizmat vakolatini suiiste'mol qilish, xizmat vakolatidan chetga chiqish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish, odob-axloq talablarini buzish holatlarining oldini olish maqsadida “Aloqa raqami” faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Agar Sizda kombinat faoliyati bilan bog'liq muammo mavjud bo'lsa, u holda quyidagi **aloqa kanallari** orqali murojaat qilishingiz mumkin:



90-968-67-20
70-214-19-17
Ichki raqam 17-07



compliance@uzbeksteel.uz
https://t.me/UMK_ANTICOR_BOT

UNUTMANG! PORA OLIISH HAM, BERISH HAM JINOYAT!

UMUMXALQ BAYRAMLARI DAM OLISH KUNIGA TO'G'RI KELGANDA NIMA BO'LADI?

Avvallari umumxalq bayramlari dam olish kuniga to'g'ri kelganda shanba va yakshanba kunlari boshqa kunlarga ko'chirilmas edi. Endilikda shunday holat ro'y bersa dam olish kunlari ko'chirilgan ekan. Haqiqatan ham shundaymi?

B. Mahmudov

Yaqindakuchgakirgan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga asosan umumxalq bayramlari dam olish kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, dam olish kuni bayramdan keyingi ish kuniga ko'chiriladi. Bunda ishlab chiqarish, texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlan-



maydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmaydi.

Dam olish kunlaridan va ishlanmaydigan bayram kunlaridan xodimlarning oqilona foydalanishi maqsadida dam olish kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan boshqa kunlarga ko'chirilishi mumkin.

BOLA BOG'CHAGA BORMASA HAM TO'LOV TO'LANADIMI?

Bog'chada ota-ona tomonidan to'lanadigan badal puli bola sababsiz 1 kun, 2 kun qolsa ham to'lanadimi? Agar 15 kungacha bolaga yo'q qo'yilsa ham, ota-ona vzos to'lashi mumkinmi?

Z. Sulstonova.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Moliya vazirligining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab-internatlardagi bolalar ta'minotiga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 13-bandiga ko'ra bolaning yoki oila a'zolarining kasalligi, karantin holatida bo'lganligi tufayli, shuningdek ota-onalardan birining ishdan (o'qishdan) bo'sh vaqti davrida yoki boshqa sabablarga ko'ra bola mak-

tabgacha ta'lim tashkilotiga ketma-ket uch kundan ortiq kelma-gan davri uchun to'langan to'lovlar keyingi to'lovlarni amalga oshirishda hisobga olinadi.

Agar bolaning kelmagan kunlari uchun to'lov hali amalga oshirilmagan bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdori u kelmagan kunlari uchun hisoblangan to'lov summasiga kamaytiriladi.

Kasallik holatida davolash-profilaktika muassasasi yoki uchastka shifokori tomonidan beriladigan ma'lumotnoma bo'lishi shart. Boshqa holatlarda ota-onalardan birining sababi ko'rsatilgan holda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyati nomiga oldindan yozgan arizasi (bildirishnomasi) asos bo'lib hisoblanadi. Bunda bolaning bir yilda ko'pi bilan 60 kundan ortiq bo'lmagan muddatgacha maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelmasligiga ruxsat beriladi.

Bolaning uyda qolgan boshqa barcha hollarida maktabgacha ta'lim tashkilotida bola ta'minoti uchun to'lovlar umumiy asoslarda to'lanadi.



MEHNAT TA'TILIDA O'RTACHA ISH HAQI BERILADIMI?

Mehnat ta'tili uchun faqat oylik maosh to'lanadimi yoki o'rtacha ish haqi beriladimi? Mehnat kodeksida bu haqda nima deyiladi?

B. Isoqov.

Mehnat kodeksining 233-moddasiga ko'ra xodimga har yilgi mehnat ta'tilida bo'lgan vaqti uchun o'rtacha ish haqi to'lanadi. Kodeksning 257-moddasida o'rtacha ish haqini hisoblab chiqarish uchun xodimga hisoblangan ish haqining tarkibiga soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan, soliq solinishi lozim bo'lgan, ish beruvchi tomonidan haqiqat-

da amalga oshirilgan to'lovlarning barcha turlari kiritilishi belgilangan.

Har yilgi mehnat ta'tili vaqti uchun haq to'lash jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda shu bilan birga mehnat shartnomasida belgilangan muddatlarda, biroq ta'til boshlanguniga qadar oxirgi ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

"RAQAMLI ENERGOAZORAT" TIZIMI JORIY ETILDI

O'zbekistonda yoqilg'i-energiya sohasidagi huquqbuzarliklarni foto va videoga olib, xabar berganlar pul bilan mukofotlanar ekan. Bu qanday tizim?

X. Nazarova.

getika vazirligining internetdagi maxsus axborot tizimiga yuborishi mumkin bo'ladi.

Vazirlik buni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi. Huquqbuzarliklar to'g'risidagi foto-

Joriy yilning 24-may kuni "Yoqilg'i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va "raqamli energonazorat" tizimini joriy etish to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanishni nazorat qilish hamda hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlarini to'liq joriy etish, yoqilg'i-energiya resurslarini talon-toroj qilish holatlarining oldini olish va ularga barham berishning yangi tizimi yo'lga qo'yiladi.

1-sentabrdan aholi elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar haqidagi fotosuratlar va videoyozuvlarni Ener-



suratlar va videoyozuvlarni yuborgan shaxslar pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi. Suratlardagi huquqbuzarlarning shaxsini aniqlash vazirlikning hududiy organlari so'roviga asosan ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday hollarda fotosuratlar va videoyozuvlarni yuborgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilmaydi. Qonun buzilishi aniqlanganda, prokuratura organlari davlat organlari va mansabdor shaxslarga talabnoma kiritadi.

QANDAY CHEKLASHLAR BELGILANDI?

Mamlakatimizda alkogol va tamaki mahsulotlarga qarshi kurashishni kuchaytirish maqsadida qonun qabul qilindi. Bu qonunga asosan alkogol va tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilish, iste'mol qilish bo'yicha qanday ta'qiqlar qo'yilmoqda?

L. Usmonov.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti joriy yil 24-may kuni "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Qonunga ko'ra, alkogol va tamaki mahsulotlarini, jumladan, quyidagi holatlarda realizatsiya qilish, iste'mol qilish taqiqlanadi:

- 21 yoshga to'lmagan shaxslarga;
- sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, sport inshootlari, sanatoriy hamda tibbiy-ijtimoiy muassasalar hududlarida;
- ta'lim, sport va diniy tashkilotlardan 100 metrdan kam masofada joylashgan savdo obyektlarida;
- qo'lda, lotoklarda, savtchalarda,

qo'l aravachalarida savdo qilish yo'li bilan sotish;

- donalab, qutisi ochilgan sigaret sotish;

Alkogol mahsulotlarini ish joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, xiyobonlarda, bog'larda, barcha turdagi jamoat transportida va boshqa jamoat joylarida iste'mol qilish taqiqlanadi.

Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy o'tgach kuchga kiradi. Tamaki mahsulotlari, tamaki va nikotin iste'mol qilish vositalariga qo'yiladigan qadoqlash va markalash, shuningdek, ularning muomalasiga qo'yiladigan talablarga oid qoidalar esa to'qqiz oydan keyin kuchga kiradi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

ARGENTINA MAYDONLARIDA BO'LIB O'TGAN U-20 JAHON CHEMPIONATI



Shahzodjon
Ne'matjonov

Argentinda bo'lib o'tgan 2023-yilgi 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi U-20 jahon chempionatida Ravshan Haydarov boshchiligidagi O'zbekiston yoshlar terma jamoasi ham munosib ishtirok etishdi. Ularning tarkibida U-20 Osiyo kubogi g'oliblaridan "Metallurg" jamoasi yarim himoyachisi Shahzodjon Ne'matjonov va himoyachisi Izzatillo Po'latovlar ham to'p surishdi. Biz esa futbolchilarimizning jahon chempionatidagi o'yinlardan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashdik.



Izzatillo
Po'latov

- Shahzodjon, mana hamma bolalar orzu qiladigan jahon chempionatiga borib keldingiz. Argentinda Messi, Maradona singari futbol yulduzlari o'sgan mamlakatni ko'rib keldingiz, taassurotlar qanday bo'ldi?

- Avvalom bor, assalomu alaykum, jahon chempionatiga borib keldik va yaxshi qatnashdik deb o'ylayman. Taassurotlar juda ham ajoyib, buni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. O'yinlarning hammasi biz uchun qaysidir jihatdan yanada o'sishimizga yordam beradi. O'yinlar oxirida esa ozgina omad yetishmadi. Shuning uchun ham natijalar biz kutgandek bo'lmadi.

- Har bitta o'yinchini o'ziga yarasha muxlis-lari bo'ladi. Oila a'zolari, butun xalqimiz kuza-tib turganini siz o'zingiz ham dilingizdan his etgan bo'lsangiz kerak?

- Albatta, ota-onam, vatandoshlarimiz bizni qo'llab-quvvatlab turishdi, buni biz his qilib turdik. Ota-onam duoda bo'ldilar, ular bilan har kuni gaplashdik, bu men uchun moti-vatsiya berib turdi.

- Bu yilgi jahon jem-pionatining kashfi-yotlaridan biri sifa-tida Gvatemalaga qarshi o'yindagi yorqin gollaringizni misol qilib, barcha ommaviy axborot vositalarimiz ancha iliq fikrlar bildi-rishdi. Umuman mana shu o'yinga tayyorgar-lik qanday kechdi, ilk daqiqalarda maydonga tushirilishingizni kutganmidingiz?

- Endi kashfiyot bo'ldim deb ayta olmay-manu, Gvatemalaga qarshi o'yinda maydonga tushishimni murabbiyimizning bir kun oldingi gap-so'zlaridan bilib turgandim. O'yinga tushishim o'zim uchun yangilik bo'lmadi, muxlislar uchun yangilik bo'lgandir. Odatdagiday o'yinga chiqdim, mehnat va harakatga yarasha natija bo'lganidan xursandman.

- Ayniqsa birinchi golingiz, superligada-gi debyut golingizga deyarli o'xshab ketdi. Pressing bilan Olmaliq jamoasi darvozasiga kiritilgan golga qiyoslandi. O'zingizda ham shunday taassurot bo'ldimi?

- O'zimdagi ham shunaqa taassurot bo'ldi, albat-ta. Himoyachini xato qiladi deb, tavakkal qilib yugirgandim, bir xil gol bo'ldi deb o'ylayman.

- "Shahzodjon golini nishonlashda qo'lini tepaga ko'taradi, gollarini kimga bag'ishlay-di ekan", - deb, ko'pchilik muxlislar so'rashadi.

- Qo'limni ko'tarishim bu hammasi Alloh-dan deganimdir. Golimga keladigan bo'lsak, golimni rahmatli Ne'matjon buvamlarga bag'ishlayman. Oldin aytganimdek Ne'matjon buvamlar ham meni jahon chempionatlarida o'ynashimni rosa orzu qilib kutgandilar, ko'rish nasib qilmadi.

- "Isroil terma jamoasiga qarshi o'tkazilgan o'yinda jarohat olmaganida o'yinning oxiri-gacha maydonda qolardi" degan gaplarni matbuot anjumanida eshitdik. Ravshan Hay-darov ham shunaqa fikrlarni bildirdi. Jarohat qanaqa vaziyatda olindi va qanday darajada.

- Jarohat olgan vaziyatimizga to'xtalsak -

himoyachi darvozabonga bergan uzatmasi-da yetib olish uchun qattiq yugurgan edim, shunda oyog'imning son sohasidagi orqa taraf payini sal cho'zib oldim. Jarohat hozir yaxshi, shifokorlar bilan maslahatlashgan holda davol-andim. Xudo xohlasa ertadan asosiy guruhga qo'shilishga harakat qilaman.

-Oldin ham jahon chempionatida terma jamoalarimiz ishtirok etishgan va eng yaxshi natija - chorak finalgacha yetib borish bo'lgan. Bu safargi chempionatda guruh o'yinlaridan muvaffaqiyatli o'tdik, pley-offda o'ynadik. Terma jamoaning oldiga qanday vazifalar qo'yilgan edi va musobaqadagi ishtirokidan shaxsan o'zingiz va terma jamoa a'zolari qoniqish hosil qildishmi?

- Shaxsan o'zim qoniqish hosil qildim qan-daydir ma'noda. Jamoadoshlarimiz ham qoniqish hosil qilish-di. Bundan ham yax-shiroq natija qayd etishimiz mumkin edi. Isroil jamoasi yaxshi, mukammal shakl-langan jamoa ekan. Harakat qildik bo'lmadi. Endi xudo xohlasa asosiy terma jamoamiz bilan bu marrani zabt etishga astoydil harakat qilamiz.

- Qizig'i shundaki, Isroil terma jamoasi-ga ko'pchilik mutaxassislar unchalik yuqori baho bermadi. Shu ma'noda Isroil terma jamoasining biz bilan o'yindagi g'alabasi haqqoniyimidi yoki boshqacharoq natija qayd etilishi kerakmidi.

- Yo'q, albatta, ular bilan bir maydonda to'p surgan futbolchi sifatida Isroil terma jamoasini judayam baquvvat, kuchli jamoa deb o'ylayman. Yaxshi tayyorgarlik ko'rishgan. Bizni o'yin-larimizni qandayligini yaxshi o'rganib chiqish-gan. Isroil terma jamoasi menimcha haqli ra-vishda g'alaba qozondi.

- Mabodo o'sha o'yin qo'shimcha taymlar-ga o'tganda, yoxud penaltiylar seriyasigacha borganda yutarmidik.

- U haqda bir narsa deya olmayman.

- Yaqin oradagi maqsadlar, rejalar qanday? Sportda nimalarni orzu qilaisiz? Nimalarga erishmoqchisiz?

- Hozirgi paytdagi rejalarim o'z ustimda yanada kuchliroq ishlab, Yevropa jamoalariga ketib, yaxshi jamoalarda o'ynab, elimizni, yur-timizni, vatanimizni jahonga tanitib, yurt bay-rog'ini ko'klarga ko'tarish, inshaalloh.

- Faqatgina erishilgan natija bilan chekla-nib qolmay, nasib bo'lsa oldinda Olimpiya terma jamoasi, Milliy terma jamoalarda ham o'ynab, Bekobod futbol ishqibozlarini xursand qilaisiz degan umiddamiz.

- Xudo xohlasa yana harakat qilamiz, kela-jakda U-23 Milliy terma jamoasida ham o'ynab, muxlislarini xursand qilishga harakat qilamiz.

- Shahzodjon kelajakdagi ishlaringizga, o'yinlaringizga muvaffaqiyatlar tilaymiz!

- Rahmat.

- Izzatillo, Argentina maydonlarida yoshlar o'rtasi-dagi jahon chempionati o'tdi. Metallurg jamoasidan ikki nafar o'yinchi Siz bilan Shahzodjon qatnashib keldinglar. Biz judayam xursand bo'ldik, doimiy rav-ishda kuzatib bordik. Umuman jahonning eng grand futbol mamlakatlaridan birida o'tkazilgan jahon chempionati sizda qanday taassurot qoldirdi. Ayniq-sa Argentina terma jamoasiga qarshi o'tkazilgan liq to'la stadionda to'p surish oson bo'lmagandir?

- Avvalam bor, assalomu alaykum. Arentinadagi jahon chempionatidagi birinchi o'yinimiz, ochilish o'yini o'zgacha o'tdi. Stadion to'la muxlislar. Biz bu atmosferaga Osiyoda tayyorlanib, shu muxlislar-ning bosimidan o'tvolgan edik. Endi bizga qarshi bo'lgan muxlislar oldida o'ynash, baribir o'zimizning muxlislar oldida o'ynashdan ko'ra energiyamizni ko'proq sarflashimizga sabab bo'ldi. Men o'ylayman-ki, Xudo xohlasa jahon chempionatidagi barcha o'yin-larimiz biz uchun zahira bo'ladi. Oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishishda yana bitta qadam bo'ldi desam adashmagan bo'laman.

- Terma jamoamiz o'z oldiga qo'ygan minimum maqsadni bajardi deb o'ylaymiz. Siz nima deb o'ylaysiz chempionatga ketishdan oldin qanday vazifa qo'yilgan edi?

- Albatta, jahon chempionatiga chempion bo'lib qay-tamiz degan niyatda ketgan edik. Afsus nasib qilmagan ekan, lekin yurtimizni oldida sal bo'lsa ham yuzimiz yorug' bo'ldi, guruhdan chiqdik, muxlislarimiz xursand. Biz qo'limizdan kelganini bajardik, biz harakat qildik, endi hammasi Alloh-dan, ozgina omad yetishmadi.

- Chempionat o'yinlari davomida ikkita o'yinda maydonda harakat qildingiz. Umuman olganda to'liq o'z imkoniyatlaringizni namoyish qildim deb o'ylaysizmi?

- Yo'q, menga vaqt kam berildi. Endi bu murabbiy-larning qarori. Murabbiylarning qarori biz uchun har doim muhim bo'lgan. Ularni hurmat qilamiz, to'g'ri, kamroq o'ynadim, lekin Vatanim uchun jamoam uchun borimni berib harakat qildim.

- Endi yana bitta savol Siz ham Shahzodjon ham Toshkentdagi yetakchi Futbol akademiyalarida tahsil olgansizlar. Ayni vaqtda Bekobodda ham Futbol akademiyasi faoliyat yurityapti. Metallurg jamoasining tarkibidagi yosh o'yinchilar ham terma jamoalarga taklif etilyapti. Aynan mana shu ikkita sharoitlarni qiyoslay olasizmi?

- Yo'q, terma jamoada hammaga birdek qaraladi. Ular ham O'zbekistonning nomini himoya qilishadi, biz ham O'zbekiston nomini himoya qilamiz. Har bittamiz O'zbekiston farzandlarimiz, har doim e'tibordamiz shu sabab ham hammasini birdek ko'raman.

- Albatta, mana shunday erishilgan natija bilan chegaralanib qolmaysiz. Oldinda Olimpiya terma jamoasi, Milliy terma jamoalarga harakat qilib, nasib bo'lsa yanada nomdorroq jamoalarga o'tish niyati ham bormi?

- Ha, albatta, nasib qilsa sekin-sekin, bosqich-ma-bosqich amalga oshiradigan rejalarim bor. Bizni hali oldimizga qo'ygan maqsadlarimiz katta, O'zbekiston Milliy terma jamoasi bilan jahon chem-pioni bo'lish niyatlarimiz bor.

- Barcha yaxshi niyatlaringizga erishib yuri-shingizni, hamisha sog'-salomat bo'lishingizni va ayni paytda Metallurg jamoasi sharafini himoya qilayapsiz va bu jamoa bilan yaxshi natijalarga erishishingizni tilab qolamiz.

- Rahmat.

O'ZBEKISTONNING SARXIL MEVALARI



O'RIKNING FOYDALI XUSUSIYATLARI

O'zbek xalqining eng sevimli ne'matlaridan biri – o'rikning ayni yetilib pishgan pallas! U o'zining betakror ta'mi bilan barchamizga xush yoqadi. Turshagi esa qishda ham jonga darmon bo'ladi.

Ulug' alloma, tabib Abu Ali ibn Sino o'rik mevasi va yelimidan oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilashda foydalangan. Mevasi kishiga darmon bag'ishlaydi, kamqonlikka davodir, deya ta'kidlagan. Tarkibidagi kaliy tuzlari yurak-

qon tomir sistemasi kasalliklari bilan og'rigan bemorlarga shifo beradi. O'rik mag'zidan damlangan choyni xafaqonga tavsiya qilgan. Nafas yo'llari yallig'lanishi, ko'kyo'tal, nefrit kasalligini tuzatishda ham mag'zidan foydalangan.

O'RIK TARKIBI

O'rik tarkibining 10,5 foizini shakar tashkil etadi. Bundan tashqari, unda yana inulin, olma, limon va uzum kislotalari, hamda organizmdan ortiqcha xolesterin va zaharli moddalarni chiqaruvchi kraxmal va pektin ham mavjud.

Uning tarkibidagi A vitamini, organizmning yuqumli kasalliklarga qarshiligini oshiradi, terining tashqi holatini yaxshilaydi.

B vitamini, yurak-qon tomirlari tizimi bilan bog'liq xastaliklarni davolashda

muhim shifobaxsh xususiyatlarga ega.

S vitamini, organizmning umumiy qarshiligini oshirib, ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilaydi. Ushbu vitaminning yetarli darajada bo'lishi ko'plab og'ir yuqumli xastaliklarning oldini oladi.

Qolaversa, o'rik mevasi juda ko'p mineral tuzlarga ega bo'lib, ularning odam organizmida kam miqdorda bo'lishi suyaklarning yemirilishiga olib keladi. Mineral tuzlar kishining asab tizimi va moddalar almashinuvida katta ahamiyatga ega.

O'RIKNING FOYDALI XUSUSIYATLARI

O'rik iste'mol qilish kishining umumiy ahvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yurak-qon tomir va oshqozon-ichak kasalligiga chalingan yoki ortiqcha vazndan aziyat chekuvchi kishilar mazkur mevaga ko'proq e'tibor qaratishlari lozim.

O'rik mevasi gipovitaminoz yoki avitaminozda va kamqonlikda yaxshi yordam beradi. U, shuningdek, saraton xastaligida ham sog'liqni mustahkamlaydi. Bu ajoyib, ishtaha ochuvchi meva organizmning turli xastaliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi va organizmning hayotiy muhim funksiyalarini qayta tiklaydi.

Semirishga qarshi o'rik parhez mahsuloti sifatida yeyiladi. Butun dunyo dietologlari o'rik moddalar almashinuvini va ovqat hazm qilish jarayoni uchun foydali mahsulot degan fikrga kelgan.

TURSHAK SHARBATI

Qadimda xalqimiz holdan toygan bemorlarga o'rik sharbati tavsiya etishgan. O'rik sharbati mevaning o'ziga qaraganda yengil o'zlashtiriladi.

O'rik sharbati homilador ayollar, qolaversa, bolalar uchun juda foydali hisoblanadi. Chunki, u ko'p miqdordagi kalsiy tuzlari va temir moddasiga ega. 150 gramm o'rik sharbati ichish orqali organizmning karotin-



ga bo'lgan kunlik ehtiyojini qanoatlantirish mumkin.

Yangi uzilgan o'rik mevalari bo'lmagan hollarda uning o'rnini turshak ham bosa oladi. Kechqurun turshak ustidan qaynoq suv quyib saharda ichilsa,

ich qotish(kolit) kasalidan forig' bo'ladi. Ko'pgina kasalliklar ichning o'z vaqtida surilmaganidan kelib chiqadi.

OLMANING YETTI XIL FOYDASI

Manbalarda keltirilishicha, dunyoda olmaning yetti mingga yaqin navi mavjud. Bizning yurtimizda esa yuzdan ziyod olma navlari o'stiriladi. Parhezshunos N. Suslinaning yozishicha, olmani salomatlikka ziyon yetkazmaydigan darajada iste'mol qilish — me'yorini saqlash uning tarkibidagi uglevodlar miqdoriga qarab aniqlanar ekan.



⊖ Qizil olmaga qaraganda ko'm-ko'k olmaning kaloriyasi biroz kam, — deb ta'kidlaydi ekspert. — Agar vazni kamaytirmoqchi yoki qand xastaligidan himoyalanoqchi bo'lsangiz, ko'k olma, ya'ni nordon-shirin olmalarni iste'mol qilgan ma'qul.

⊖ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyasiga ko'ra, kuniga 700-800 gramm har xil sabzavot va mevalar iste'mol qilish kerak. Olmalar g'arq pishgan mavsumda esa ularni olmaga almashtirsa ham bo'ladi. Faqat bunda erkaklar olmani 700 g. ayollar esa 500 g.dan oshirmasligi lozim. Shuni hisobga olingki, olma tarkibida me'da shirasi hosil bo'lishiga ta'sir qiladigan kislotalar mavjud. Shu bois olmani odatda tushlikdan avval iste'mol qilgan yaxshi. Bu ishtahani ochadi, olma tarkibidagi kletchatka (biriktiruvchi to'qimalar) esa, me'dani to'ldiradi, natijada tushlikda haddan ziyod ko'p ovqat yeb qo'ymaysiz. Olma tarkibida S darmondorisi va foydali pektin ham mavjud.

⊖ Olma urug'ida ko'p miqdorda yod bor. Shuning uchun kuniga 2-3 dona olmani urug'lari bilan iste'mol qilish foydali. Bu bilan bir kecha-kunduzlik yodga bo'lgan ehtiyoj ta'minlanmasa-da baribir, u foydali. Ikkinchidan, yaxshi pishmagan olma urug'ida zaharli sinil kislotasi bor. Bir necha kilogramm shunday olma urug'i bilan iste'mol qilinsagina u zararli ta'sirga ega bo'ladi.

⊖ Ayrimlar oddiy olmaga qaraganda qo'rdan pishirilgani kaloriyasi, deb hisoblaydi. Agar pishirish chog'ida olmaga asal, shakar, tvorog qo'shilmasa, uning kaloriyasi oddiy olmaniki bilan bir xil bo'ladi. Agar qishga g'amlash uchun olmalarni quritib olsangiz 100 g.dan 20 g. olma qoqi chiqadi. Ularning kaloriyasi esa bir xil. Biroq olma qoqini choygakka qaynoq suv solib damlasangiz, yaxshi olmal choy bo'ladi. Bunday damlama tinchlantiruvchi xususiyatga ham ega. Qo'rdan pishirilgan olmada esa, me'da shirasi ajralishiga ta'sir ko'rsatadigan kislotalar kam.

⊖ Olmani ko'p iste'mol qilish qonni ko'paytiradi, degan xato qarash ham mavjud. Olma tarkibida temir miqdori shu darajada ozki, amalda organizm uni o'zlashtirmaydi. Gemoglobin ozayganda qizil go'sht, jigar, tuxum iste'mol qilish yordam beradi. Biroq olmada darmondorilar, ichakdagi zaharli moddalarni zararsizlantiruvchi kletchatka ko'p.

⊖ Olmaning har qanday navi tarkibida 80 foizga qadar suv mavjud. Biroq kuz va qishga borib pishadigan ko'k olmalarda suv biroz kam bo'ladi. Shuning uchun aynan mana shunday navlarni quritish uchun tanlagan ma'qul. Yozda pishadigan qizil olmalar shirin va shiraliligi bois ularni yangiligida iste'mol qilgan afzaldir. Ko'k olmalar qishga g'amlab qo'yilsa, mikroelementlari yaxshi saqlanadi.

⊖ Oshqozon yarasi, ich qotish, eroziya, jarohat kabi taom hazmi bilan bog'liq xastaliklar xuruj qilgan paytlarda olma ko'p iste'mol qilinsa, og'riq paydo qilishi, xastalikni rivojlantirib yuborishi mumkin. Chunki olmada, ayniqsa, uning po'stlog'ida dag'al kletchatka ko'p.

Olmani boshqa sabzavot va mevalardan alohida saqlan ma'qul. Kuz va qishga kelib pishadigan antonovka, semirenko navli olmalar, ya'ni ko'm-ko'k va qattiq, nordon-shirin olmalar uzoq vaqt saqlanadi. Bunda salqin va qorong'i joylar qo'l keladi.

SAHIFANI AZIZA JUMAYEVA TAYYORLADI

*IBRATLI HIKOYA*IBRATLI HIKOYA* IBRATLI HIKOYA*IBRATLI HIKOYA* IBRATLI HIKOYA*



ORTGA YO‘L YO‘Q

Safarga chiqqan kishi yo‘lda ajabtovur bog‘ga duch keldi. Daraxtlari ko‘kka bo‘y cho‘zgan, mayin barglari shabbodada yoqimli shitirlaydi, sarxil mevalarning xush bo‘yi dimoqni qitiqlaydi. Yo‘lovchi bog‘ning egasini topib, ichkari kirishga izn so‘radi. Bog‘bon unga ruxsat beribgina qolmay, qo‘liga bir savat ham tutqazdi.

– Shuni to‘ldirib ko‘nglingiz tusagan mevalardan terib olishingiz mumkin. Faqat bir gap esingizda tursin: bog‘ga qarshingizdagi darvozadan kirib, narigi tarafdin chiqib ketasiz. Orqaga yo‘l yo‘q!

Musofir yuragi hapriqib savatni ko‘targancha ichkariga qadam tashladi. G‘arq pishgan mevalar

“meni uz” degandek yal-yal yonib, shundoqqina tepasida osilib turardi. Endi qo‘lini cho‘zmoqchi bo‘lgandi, nariroqdagi mevalar ko‘zini qamashtirdi. Oldinga yurgan sari daraxtlar ko‘rkamroq, hosili chiroyliroq ko‘rinaverdi. Yo‘lovchi shoshib qoldimi yo savatini vaqtidan ilgari to‘ldirib, eng sara mevalardan quruq qolishdan cho‘chidimi, har holda bog‘ etagiga yetib kelganida... savati bo‘m-bo‘sh edi. Orqaga esa yo‘l yo‘q.

Inson umrini dunyo atalmish makonning bir eshigidan kirib, boshqa eshigidan chiqib ketuvchi yo‘lovchidek yashab o‘tadi. Undagi har kun, har lahza xayrli ishlar uchun berilgan imkoniyatdir. Bu makonning poyoni qayerdaligini, umr intihosi qachon yetishini hech kim bilmaydi. Vaqt g‘animat, ezgu amallarimiz “savati” bo‘sh qolmasin...

HIKMATLAR XAZINASI

Olamdagi eng boy odam – o‘z quvonchi uchun eng kam mablag‘ sarflaydigan odamdir.

Genri David.

Yaxshilik shunday ne‘matki – uni hatto ko‘zi ojizlar ko‘ra oladilar, qulog‘i og‘irlar eshita oladilar.

Mark Tven.

Har bir odamga hurmat va yaxshilik bilan qarang – ular shunga loyqliklari uchun emas, siz inson bo‘lganligingiz uchun.

Konfutsiy.

QISQA VA TA‘SIRLI HIKOYALAR

AXLOQING BILAN FAXRLAN!

Ko‘rinishing bilan faxrlanma. Chunki uni sen yaratmagansan. Nasabing bilan ham faxrlanma. Chunki uni sen tanlamagansan. Lekin axloqing bilan faxrlan. Chunki unga ziynatni sen bergansan...

NISHONDAGI GAPLAR

Bo‘ri pistirib kirib keldi, shunda xo‘roz qichqirdi. It hurdi. Cho‘pon sergak tortdi, oila uyg‘ondi. Bo‘ri qochdi. Chorva omon qoldi. Cho‘ponning oilasi (chorvasi bo‘rining hamlasidan omonda qolganini) bayram qilib nishonlash uchun xo‘rozni so‘yishdi...

ZAMON O‘ZGARIB TURADI

Qushlar chumolilarni yeydi. Qushlar o‘lgach, chumolilar ularni yeyishadi. Zamon ana shunday o‘zgarib turadi. Hech bir kimsaning sha‘nini kamsitmang. Ehtimol, siz bugun kuchlidirsiz. Lekin bir kun kelib sizdan ham kuchlilar bo‘lishini unutmang!

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

Yer yuzida qaysi hayvonning yuragi bir daqiqada atigi 9 marta uradi?

Merkuriy sayyorasidagi kraterlarning birining nomi qaysi ajdodimiz nomiga qo‘yilganligini bilasizmi?

Biz uni ko‘rib quvonamiz, eshitib zavqlanamiz, his qilganda rohatlanamiz?

Tut daraxtining qanday karomati uchun uni nodir obidalar atrofiga ekishgan?



Yurtimizda havo transporti yo‘lovchilarni qachon tashishni boshlagan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o‘tgan sonidagi savollarning javoblari.

Quduq.

O‘z joniga qasd qilish.

Tish pastasi teshigini kattaroq qilishni aytadi. Shunda pasta ezilganda keragidan ko‘p miqdorda tish pastasi chiqadi. Natijada tish pastasi tezroq tugaydi.

Italiya.

AQSh va Kanada.



KOMPYUTERDAN QANDAY FOYDALANISH KERAK?

Kompyuter va turli gadjetlar hayotimizni yengillatish bilan birga ularga salbiy ta‘sir ham ko‘rsatadi. Zararli tomonlari bosh, ko‘z, umurtqa pog‘onasi, quymich va boshqa a‘zolarida aks etadi. Undan foydalanganda quyidagilarga amal qiling:

Kompyuter ekrani va inson oralig‘i 50-60 smdan kam bo‘lmasligi va kompyuterdan foydalanish kattalar uchun 3-4 soatdan ortmasligi kerak.

Yorug‘lik to‘g‘ridan to‘g‘ri ekranga tushmasligi zarur. Xona harorati 20-24 °C daraja atrofida bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Texnika xavfsizligiga e‘tibor berish lozim.

Qurilma atrofida uzluksiz o‘tirmaslik muhim.

Ko‘zlarni tez-tez ekrandan olib, maxsus mashqlar bajarib turish tavsiya etiladi.

Dilafro‘z MO‘MINOVA, shifokor.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

Bir odam tilla baliq tutib olib, debdi:

– Mashina va uy xohlayman!

Baliq:

– Arendagami yoki davlatdan kreditgami?

Haligi odam:

– Xo‘sh, seni paxta yog‘ida qovuraymi yoki pista yog‘idami? Tanla!

Bir erkak 10 qavatdan pastga yiqilib tushibdi. Havoda pastga tushayotgan erkak o‘ziga-o‘zi debdi:

– Agar tirik qolsam, ichishni, chekishni tashlayman, xotinimga vafodor bo‘laman!

Omadi kelib qolib, shaloplab hovuzga tushibdi. Suvdan boshini chiqarib:

– Pastga tushgunimcha 5 soniya o‘tdi-yu, boshimga ming xil bema‘ni fikrlar keldi-ya, – dermish.



MUASSIS:
O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Sarvinoz SHERALIYEVA

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va “Niso Poligraf” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
O‘rta Chirchiq tumani, “Oq ota” hududi “Mash‘al” mahallasi, “Markaziy” ko‘cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-15.30
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta “O‘zmetkombinat” AJda bepul tarqatiladi.